

26-dars

Darsning mavzusi: Asos va qo'shimchalarni aniqlash.

(114-117-mashqlar)

Darsning ta'limiy maqsadi: Asos va qo'shimchalarni ajrata olish, ularni gapdagi vazifasi haqida ma'lumot berish, ularni og'zaki va yozma nutqda to'g'ri qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirish; o'qilgan matn mazmunini va o'zgaralar fikrini anglab, ifodalay oladi, og'zaki nutqda so'z va gaplar ohangiga rioya qila olish, so'zdagi qo'shimchalarga ko'ra turlarini farqlash, so'z yasovchi qo'shimchalarni o'z o'rnida ishlata olish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarda kattalarni hurmat qilish, oqibatli bo'lish hislatlarini tarbiyalash; axborot manbalaridan va darslik materiallaridan tashqari (kitob, lug'at) manbalardan ma'lumotlarni izlab topa olish va foydalanish; o'zining xato va kamchiliklarini to'g'ri tushunib, o'zini nazorat qila olish va xatolarini tuzatishga harakat qilish, kattalarga, kichiklarga va o'rtoqlariga yordam berish; o'zidan kattalarga, o'rtoqlariga va o'zidan kichiklarga yordam berish; yaxshi va yomon odatlarni bir-biridan farqlay olish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: kitobga mehr uyg'otib borish, ko'p kitob o'qish, o'z fikrini tinglovchilarga yetkaza olish, ifodali o'qish va ohangdor qilib gapirish malakalarini takomillashtirish; talaffuz me'yorlariga, bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila oladi, mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda, o'zlashtirilgan leksik birliklarni matnda qo'llay olish.

Darsning turi: o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

Darsning metodi: suhbat, analiz, mustaqil ish metodi, aqliy hujum metodi, *"Kim chaqqon" o'yini*.

Darsning jihozlari: mavzuga oid mazmunli rasmlar, tarqatmalar, multimedia ilovalari.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism.

-salomlashish, davomatni aniqlash, o'quvchilarni darsga hozirlash.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Husnixat daqiqasi:

Kitob- aql qayrog'i.

O'tilgan mavzuda berilgan uyga vazifasini tekshirish. Uyga berilgan mashq o'qitiladi. Uy vazifasi tekshirilayotganda doim o'quvchilarga "Qaysi so'zda yoki shu so'zning qayerida imlo xato qilib qo'yish mumkin?" degan savol berish, o'sha so'zning imlosi ustida ishlash lozim. Mustaqil ravishda so'z yasovchi va so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalar qatnashgan so'zlar yozish topshiriladi. O'qituvchi o'quvchilar mustaqil ishni bajargunlaricha uy vazifalarini tekshirib chiqadi. O'quvchilar yozgan so'zlarini o'qib eshittiradilar. Har bir so'zda qanday qo'shimcha borligini izohlaydilar. O'qituvchi o'quvchilar yozgan eng yaxshilarini doskaga yozdiradilar.

O'quvchilar bilan so'zlardagi qo'shimchalar yuzasidan fikrlari umumlashtiriladi.

III. Mustahkamlash.

114-mashq. So'zlarni o'qing.asos va qo'shimchalarni tegishlicha belgilang.

Ishchi, bog'bon, gulchi, gulzor, paxtakor, aqlli, chegarachi, tuzsiz, terimchi, kitobxon, hosildor.

Shu so'zlar ishtirokida 2 ta gap yozing.


115-mashq. Jadvalni to'ldiring

-chi	-la	-siz
O'quvchi	ishla	gulsiz

Shu so'zlar ishtirokida matn tuzish

116-mashq. Shartiga ko'ra bajariladi. Gaplar ko'chiriladi. Asos va qo'shimchalar tegishlicha belgilanadi.

Topshiriq



Har bir o'quvchiga shu rasm tarqatiladi va nuqtalat xuddi ko'rsatilganidek, ranglar beriladi.

IV. Darsga yakun yasash va baholash

Dars yakunida o'quvchilar joriy darsda o'zlari egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. So'ngra dars davomida faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

V. Uyga vazifa berish.

117-mashq sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi ta'kidlanadi.